



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI HAMDA
HOZIRGI AMALIYOTI: MILLIY KONTEKST**

**ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И СОВРЕМЕННАЯ ПРАКТИКА ЗЕЛЁНОГО
ФИНАНСИРОВАНИЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОНТЕКСТ**

**DEVELOPMENT TRENDS AND CURRENT PRACTICES OF GREEN FINANCE IN THE
NATIONAL CONTEXT**

Olimova Nodira Xamrakulovna – Qo‘qon universiteti, i.f.n., prof.

Annotatsiya

Ushbu ishda O‘zbekistonning yashil moliyalashtirish tizimi, rivojlanish tendensiyalari va amaldagi holati tahlil qilinib, yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar va ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganildi. Tadqiqot institutsional omillar, tartibga solish va investorlarga rag‘batlarni baholab, yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: yashil moliya, yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar, ekologik loyihalar, O‘zbekiston, barqaror rivojlanish

В данном исследовании анализируется система зелёного финансирования в Узбекистане, тенденции развития и текущее состояние, с акцентом на зелёные облигации, устойчивые кредиты и механизмы поддержки экологических проектов. Оцениваются институциональные факторы, регулирование и стимулы для инвесторов, с предоставлением рекомендаций по ускорению перехода к «зелёной» экономике и обеспечению экологической устойчивости.

Ключевые слова: зелёное финансирование, зелёные облигации, устойчивые кредиты, экологические проекты, Узбекистан, устойчивое развитие

This study analyzes Uzbekistan’s green finance system, development trends, and current state, focusing on green bonds, sustainable loans, and mechanisms supporting environmental projects. It evaluates institutional factors, regulations, and investor incentives, providing recommendations to accelerate the transition to a green economy and ensure environmental sustainability.

Keywords: green finance, green bonds, sustainable loans, ecological projects, Uzbekistan, sustainable development

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish davlatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Soha normativ-huquqiy va institutsional asoslari bosqichma-bosqich takomillashib, xalqaro standartlar va barqaror rivojlanish mezonlariga moslashtirilmoqda. Shu jarayonda normativ-huquqiy hujjatlarni tatbiq etish mexanizmlarini mustahkamlash, xususiyl sektor ishtirokini kengaytirish va moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish iqtisodiy-ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda yashil moliya jahon miqyosida barqaror rivojlanishning asosiy drayveriga aylangan bo‘lib, iqtisodiy faoliyatni ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida moliyalashtirishni ta‘minlaydi. O‘zbekistonda yashil moliya mexanizmlari joriy etilib, normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda va xalqaro standartlarga moslashish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Bu ekologik muammolarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish uchun barqaror moliyalashtirish vositalarining zarurligini ko‘rsatadi.

Iqlim o‘zgarishi siyosatini amalga oshirishga qaratilgan milliy strategiyalar barqaror rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Ular doirasida qayta tiklanadigan energiya

manbalarini keng joriy etish, past uglerodli texnologiyalarni sanoatda qo‘llash, qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor yechimlarni rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish ustuvor hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi iqtisodiy o‘sish, kambag‘allikni kamaytirish, barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, shuning uchun uning oqibatlarini yumshatish va yashil iqtisodiyotga o‘tish choralarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2023-yilda BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va FTA hamkorligida “Davlat byudjeti xarajatlarini yashil tasniflash” uslubiyoti ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv davlat xarajatlarining iqlim va atrof-muhitga ta‘sirini aniqlash, shuningdek, “yashil” byudjetlashtirish tamoyillariga muvofiqligini baholash imkonini yaratadi, bu esa iqtisodiy siyosatni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishning samarali instrumenti sifatida xizmat qiladi [5]. “Yashil” byudjetlashtirishda xarajatlar avvalo iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy ta‘siriga ko‘ra aniqlanadi va uch guruhga ajratiladi: iqlim o‘zgarishini yumshatish, iqlimga moslashish va boshqa atrof-muhit ta‘sirlari. Har bir guruh tadbirlarning ta‘siri bo‘yicha baholanadi. Bu tamoyillar xarajatlarni iqlimga ta‘siri asosida tasniflashning mantiqiy davomidir va u bosqichma-bosqich yondashuv orqali joriy etiladi. [6]

Yashil byudjetlashtirish ikki bosqichdan iborat bo‘lib, davlat moliyasini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida rejalashtirish mexanizmini tashkil etadi. Birinchi bosqichda xarajatlar issiqxona gazlarini kamaytirish, iqlimga moslashuv, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma iqtisodiyot prinsiplari, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va bioxilma-xillikni himoya qilish kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha baholanadi. Ikkinchi bosqichda moliyaviy resurslarning ekologik va iqlimiy maqsadlarga haqiqiy ta‘siri aniqlanadi va xarajatlar ijobiy, aralash yoki salbiy ta‘sirli toifalarga ajratiladi. Bu tasnif moliyaviy oqimlarning ekologik samaradorligini oshirish, byudjetning “yashil” tarkibini aniqlashtirish va barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi darajadagi tasnifda byudjet satrining atrof-muhitga ta‘sirini to‘g‘ridan aniqlash mumkin bo‘lmagan hollarda qo‘shimcha ma‘lumotlardan foydalaniladi. Qayta tiklanuvchi energiya, resurslarni tejash va iqtisodiyotning iqlimga chidamliligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar orqali davlat byudjeti xarajatlari ortmoqda. Iqlim byudjetini belgilash ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilga mo‘ljallangan jami xarajatlarning 35060,1 milliard so‘mi yoki 11,2 foizi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xarajatlarga to‘g‘ri keladi [6].

Biroq, BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) hisob-kitoblariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar uchun moliyalashtirish hajmi 5,8 milliard AQSh dollaridan oshadi. 2030-yilgacha iqlimga moslashish chora-tadbirlari uchun esa umumiy moliyaviy ehtiyoj besh asosiy tarmoq – suv, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, favqulodda vaziyatlar va binolar – hamda uchta hududiy moslashuv rejasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlari) asosida taxminan 18 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Shu bilan birga, 2030-yilgacha iqlimga moslashish chora-tadbirlari uchun byudjetdan ajratilgan davlat mablag‘lari taxminan 8 milliard AQSh dollarini tashkil etsa, BMTTD tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha doirasida ishlab chiqilgan va Yashil iqlim jamg‘armasi Tayyorlov dasturi doirasida moliyalashtiriladigan Moliyaviy va investitsiya strategiyasida belgilanganidek, qo‘shimcha 10 milliard AQSh dollari jalb etilishi lozim. Bu holat iqlimga moslashuv va yashil moliyalashtirish bo‘yicha davlat va xalqaro moliyaviy resurslarning muvofiqlashtirilgan va kompleks yondashuvini talab qiladi [6].

Yashil moliya vositalarining samaradorligini baholashda ularning “yashil” ish o‘rinlarini yaratishga qo‘shayotgan hissasi indekslar va kompleks indikatorlar orqali o‘lchanadi. Har bir instrument sektorial kesimda alohida tahlil qilinib, moliyalashtirishning real iqtisodiyotga ta‘siri aniqlanadi. O‘zbekistonda tizim to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda institutsional va huquqiy islohotlar orqali “yashil iqtisodiyot” tamoyillari joriy etilib, qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi va ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi:

1. 2021-2050 yillarga mo‘ljallangan iqtisodiyotni karbonsizlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli qarori bilan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlanib, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash bo‘yicha

strategik yo‘l xaritasi belgilandi. Strategiya suv resurslarini boshqarish, energiya samaradorligini oshirish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, yashil bandlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni karbonsizlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli qarori [1] “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida yashil va inklyuziv iqtisodiy o‘tishni ta‘minlashga qaratilgan. Qaror qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni tejash va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlarni belgilaydi. 2030-yilgacha YaIM birligiga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasidan 35 %ga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 15 GVt.ga yetkazish va ularning elektr energiyasidagi ulushini 30 %dan oshirish rejalashtirilgan. Sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 % oshirish, energiya sarfini 30 % kamaytirish, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini 1 million gektarda joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish va o‘rmon fondi zaxiralarini 90 million kub metrda oshirish ham nazarda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlar ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot rivojini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. [2].

Qattiq maishiy chiqindilarni 65 %dan ortiq qayta ishlash aholining sanitariya va ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Qaror sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamliligini ta‘minlash konsepsiyasini, 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyot va o‘tishni rivojlantirish harakatlar rejasini hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan energiya tejash maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hujjatda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mas‘ul davlat organlari va ularning vazifalari ham belgilangan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 avgustdagi PQ-362-sonli “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida” gi Qarori bilan Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Prezident Kengashi orqali Milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan, 2-MDCni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan [1].

Shunga qaramay, mamlakatning ichki moliya bozorida yashil obligatsiyalar, bank kreditlari, investitsiya vositalari va ekologik yo‘naltirilgan moliyaviy mahsulotlar hali yetarli darajada rivojlanmagan. Kelgusida normativ-huquqiy bazani yana takomillashtirish, moliyaviy institutlarning ekologik mas‘uliyatini kuchaytirish, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini keng joriy etish hamda xususiy sektor faolligini oshirish orqali O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish salohiyati sezilarli darajada ortishi kutilmoqda.

Iqlim o‘zgarishi iqtisodiy o‘tish, kambag‘allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘tish modeliga o‘tishni jadallashtirish hamda ularga moslashish choralari kuchaytirildi. 2021-yil dekabrda 2024-yil sentyabrigacha bo‘lgan davrda “yashil” iqtisodiyot strategik maqsadlarini moliyaviy ta‘minlash uchun zarur huquqiy asoslar yaratildi.

Davlat byudjeti xarajatlarning 2023-2025-yillardagi ko‘rsatkichlarini “yashil” byudjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari shuni ko‘rsatadiki, “A” toifadagi xarajatlar ulushi 2023-yildagi 13,9% dan 2024-yildagi 10,2% ga pasaygan bo‘lsa, “D” toifadagi xarajatlar ulushi esa 83,2% dan 86,7% ga oshgan. [3]

2020-2024-yillarda iqlimga oid byudjet xarajatlari 14878,9 mlrd so‘mdan 729,3 mlrd so‘mgacha kamaygan. Bunga xalqaro grantlar, kreditlar va xususiy investitsiyalarni jalb etish hamda loyihalarning qurilish va jihoz xaridlari kabi siklik xususiyatlari sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, iqlimga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan byudjet xarajatlari mutlaq qiymatda o‘tish tendensiyasini saqlab qoldi. Iqlim-ijobiy xarajatlarning davlat byudjeti umumiy xarajatlari va YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 10,3 va 2,5 foizdan 2022-yilda 11,1 va 3,0 foizgacha o‘sgan bo‘lsa, 2022-2024-yillarda bu ko‘rsatkichlar 0,2 va 0,05 foizga tushib qoldi hamda 729,34 milliard so‘mni tashkil etdi. [3]

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni tejash va iqtisodiyotning iqlimga chidamliligini oshirishga qaratilgan davlat byudjeti xarajatlari ortib bormoqda. 2024-yilga mo‘ljallangan jami xarajatlarning 35060,1 mlrd. so‘mi (11,2 %) iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tadbirlarga yo‘naltiriladi. BMTTD hisob-kitoblariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishini yumshatish uchun zarur

moliyalashtirish 5,8 mlrd. AQSh dollaridan ortiqni tashkil etadi, 2030-yilgacha esa besh tarmoqqa (suv, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, favqulodda vaziyatlar, binolar) va uchta hududiy moslashish rejasiga (Qoraqalpog‘iston, Buxoro va Xorazm) muvofiq jami 18 mlrd. AQSh dollariga teng moliyaviy ehtiyoj talab etiladi.

2030-yilgacha iqlimga moslashish chora-tadbirlari uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘ taxminan 8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi, shuningdek BMTTD va Yashil iqlim jamg‘armasi tayyorlagan Moliyaviy va investitsiya strategiyasiga ko‘ra loyiha uchun qo‘shimcha 10 mlrd. AQSh dollari jalb qilinishi zarur. O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tishni moliyalashtirishda bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, davlat tomonidan chiqariladigan mavzuni (suveren) obligatsiyalar orqali qarz majburiyatlari kupon stavkasi bo‘yicha to‘lanadi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda rasmiy rivojlanish yordami mavjud bo‘lmagan joylarda korporativ mavzuni obligatsiyalar emissiyasi ustunlik qilsa, O‘zbekiston kabi huquqiy davlatlarda davlat sektori emissiyalari suveren obligatsiyalar emissiyasining yarmidan ortig‘ini tashkil etadi [4].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi hali to‘liq shakllanib ulgurmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mazkur yo‘nalishda muayyan qadamlar qo‘yildi. Davlat siyosatida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalarni moliyalashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Shunday bo‘lsa-da, ichki moliya bozorida yashil obligatsiyalar, bank kreditlari va investitsiya vositalari hali yetarlicha rivojlanmagan. Kelgusida me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, moliyaviy institutlarning ekologik mas‘uliyatini kuchaytirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali O‘zbekistonda yashil moliyalashtirishning imkoniyatlari sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish amaliyoti va uning siyosiy asoslari izchil rivojlanmoqda. Ekologik barqaror rivojlanishga o‘tish uchun muhim huquqiy, moliyaviy va institutsional mexanizmlar yaratilmoqda, shuningdek bozor infratuzilmasini takomillashtirish, standartlarni joriy etish va moliya sektorining malakasini oshirish ishlarini davom ettirish zarur. O‘zbekiston yashil moliya tizimini rivojlantirishda mintaqada yetakchi bo‘lish salohiyatiga ega bo‘lib, kelgusida islohotlar yanada tezlashishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://lex.uz/ru/docs/6303233>
2. Финансирование перехода Узбекистана к «зеленой» экономике. © OECD 2024. - С.65
3. https://api.mf.uz/media/document_files/Byudjet_P_25_uz.pdf
4. Government of Uzbekistan (2022), О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2023 года [On measures to improve the efficacy of reforms aimed at transitioning the Republic of Uzbekistan to a green economy by 2030], <https://lex.uz/ru/docs/6303233> (accessed on 21 June 2023).
5. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-12/ocenochnyy_otchet_o_progresse_v_realizacii_ndc2_respubliki_uzbekistan_0.pdf
6. https://api.mf.uz/media/document_files/Byudjet_P_24_uz.pdf